

**0‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA 0‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

0‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

**60911100 -“XALQ TABOBATI” ta‘lim yo‘nalishi
MALAKA TALABLARI**

ANDIJON-2022

Mazkur Malaka talablari Andijon davlat tibbiyot instituti Markaziy uslubiy xay'atida ko'rib chiqilgan, institut Kengashiga tasdiqlash uchun tavsiya etilgan.
2022 yil "29" 06 dagi 11 - sonli bayonnoma.

Andijon davlat tibbiyot instituti Kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan 2022 yil "29" 06 dagi 13 - sonli bayonnoma.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim, davlat ta'lim standard. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy- uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

B.R.Abdullajonov

Xalq tabobati yo'nalishi mas'uli

F.Nosirova

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i

Q.M.Yusupov

MUNDARIJA

1.	60911100-Xalq tabobati bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi.....	3
1.1	Qo'llanish sohasi.....	3
1.1.1.	60911100-Xalq tabobati ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanishi.....	3
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	3
1.2	60911100-Xalq tabobati ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi.....	3
1.2.1.	60911100-Xalq tabobati ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	3
1.2.2.	60911100-Xalq tabobati ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining ob'ektlari.....	4
1.2.3.	60911100-Xalq tabobati ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining turlari.....	5
1.2.4.	60911100-Xalq tabobati ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarining kasbiy vazifalari.....	5
2.	60911100-Xalq tabobati ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7

1. 60911100-Xalq tabobati bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi

60911100-Xalq tabobati ta'lim yo'nalishi buyicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida o'quv reja va modul dasturi asosida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qollanish sohasi

1.1.1. 60911100-Xalq tabobati ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanishi. Tibbiyot va farmatsevtika oliy ta'limning ushbu malaka talablari **60911100-Xalq tabobati** ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlash o'quv reja va modul dasturlarining o'zlashtirilishini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi barcha tibbiyot va farmatsevtika oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuasini ifodalaydi.

Tibbiyot va farmatsevtika oliy ta'lim muassasasi mazkur bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlash vakolatiga ega bo'lganligi uchun mazkur malaka talablar asosida o'quv reja va modul dasturlarini amalga oshirish huquqiga ega.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o'quv reja va modul dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul oliy ta'lim muassasalarining professor - o'qituvchilari;

- ta'lim yo'nalishining o'quv reja va modul dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari;

- o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari);

- bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya va imtihon komissiyalari;

- tibbiyot va farmatsevtika oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- tibbiyot va farmatsevtika oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- ta'lim yo'nalishini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bolgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2.60911100-Xalq tabobati ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1.60911100-Xalq tabobati ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60911100-Xalq tabobati - bakalavriat ta'lim yo'nalishi - fan va sogliqni saqlash sohalariga tegishli yo'nalish bo'lib, sogliqni saqlash tizimi muassasalarida, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish, tibbiy nufuzini oshirish, o'tkir va surunkali kasalliklarning kelib chiqishi va tarqalishini oldini olish, yuqumli kasalliklarni oldini olish doirasida epidemiya va pandemiyaga qarshi chora - tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, kasalliklarni tashxislash va davolashning zamonaviy usullaridan keng foydalangan holda bemorlarning tibbiy

muammolari bo'yicha asosiy vazifalarni hal qilish, sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'inida tibbiy-ijtimoiy vazifalarni bajarish bo'yicha kompleks masalalarni echishni o'z ichiga oladi.

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohaslarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

1.2.2. 60911100- Xalq tabobati ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyatining ob'ektlari:

- Sog'liqni saqlash tizimidagi jarayonlar, islohatlar, sog'liqni saqlash tizimiga tegishli qaror va farmonlar, buyruqlar, chora - tadbirlar, dasturlar, standartlar, innovatsion g'oya va loyihalar, ilmiy-tadqiqot ishlari, ilmiy maqolalar, tezislari, me'yoriy hujjatlar, ma'lumotnomalar, hisobotlar;

- tibbiyot asbob-uskunalar, simulyatsion ta'lim texnologiyalari, simulyator rabotlar va fantomlar, dori vositalari, muolajalar, resurslar, vositalar, usul va uslublar majmuasi;

- jamiyat, aholi, oila, bemorlar, tibbiy yordamga muhtoj qariyalar, kattalar va bolalar, ayollar va erkaklar;

- xalq tabobati sohasidagi qollaniladigan turli diagnostik asbob-uskunalar;

- sog'liqni saqlash tizimidagi davolash va profilaktika bo'yicha davlat va xususiy muassasalar, viloyat, shahar, tuman davolash-profilaktika muassasalari;

- innovatsion va ilmiy-tadqiqot jarayoni.

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat ob'ektlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

60911100-Xalq tabobati ta'lim yunalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyati quyidagilarni qamrab oladi:

- sog'liqni saqlashni birlamchi tizimida tibbiy faoliyatni tashkil etish;

- aholi salomatligini muhofaza qilish va sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish;

- aholi orasida keng tarqalgan o'tkir va surunkali kasalliklar bo'yicha barcha turdagi profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va tadbiriq etish;

- yuqumli kasalliklarni oldini olish va epidemiya, pandemiya sharoitida zarur bo'lgan chora - tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

- shoshilinch yordam ko'lamini bo'yicha zarur nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lish hamda amaliyotda qo'llash;

- tibbiyot sohasida dolzarb bo'lgan kasalliklar hamda muommolar bo'yicha zamonaviy ma'lumot, bilimlarga ega bo'lish va faoliyati davomida ular to'g'risidagi ma'lumotlar bilan muntazam tanishib borish va qo'llash;

- aholi orasida keng tarqalgan kasalliklar bo'yicha zamonaviy tashxislash va davolash standartlarini maqsadga yo'naltirilgan holda amaliyotda qo'llash;

- dispanserizatsiya va rehabilitatsiya choralari talab qilinadigan holatlarda, ularni aholiga zarur bo'lgan darajada qo'llash chora-tadbirlarini o'z vaqtida amalga oshirish ;

- sog'liqni saqlash birlamchi tizimining mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va ularni samarali boshqarishda ishtirok etish;

- tibbiyot sohasida dolzarb bo'lgan muommolar bo'yicha ilmiy-tadqiqot

faoliyati va innovatsion loyihalarni talab darajasida olib borishda ishtirok etish;

- aholini ijtimoiy muhofaza qilishda uning uchun ma'sul bo'lgan tashkilotlar bilan hamkorlikda mavjud resurslardan unumli foydalanish.

1.2.3. 60911100- Xalq tabobati ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyatlarining turlari:

- tibbiy-profilaktik;
- tezkor va shoshilinch tibbiy yordam;
- tashxislash va davolash;
- reabilitatsiya va dispanser nazorati;
- tibbiy-ijtimoiy;
- tashkiliy- boshkaruv;
- ilmiy-tadqiqot va innovatsion.

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat turlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha tayyorlangan bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda tibbiyot va farmatsevtika oliy ta'lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

1.2.4. 60911100-Xalq tabobati ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarining kasbiy vazifalari.

60911100-Xalq tabobati ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriyat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bolishi lozim:

Tibbiy - profilaktik faoliyatida:

- aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish;
- aholi orasida kasalliklar rivojlanishiga sabab bo'luvchi xavf omillarni aniqlash va bartaraf etish;
- aholi tibbiy nufuzini oshirish, ratsional ovqatlanish tamoyillari hamda zararli odatlarni bartaraf etish borasida zarur chora - tadbirlarni amalga oshirish;
- sog'liqni saqlash tizimida birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqish;
- aholi orasida keng tarqalgan kasalliklarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- tibbiy-profilaktika faoliyatida ilg'or, innovatsion texnologiyalarni joriy etish;
- tibbiy—profilaktik faoliyatida xalq va qo'shimcha tabobati usullarni qollanishini.

Tezkor va shoshilinch tibbiy yordam faoliyatida:

- shoshilinch holatlarni o'z vaqtida aniqlash;
- kasalxonagacha bo'lgan tez yordam ko'lamini aniqlash va tibbiy yordam ko'rsatish;
- ko'rsatmaga ko'ra zarur mutaxassislar va kasalxonaga yuborish.

Tashxislash va davolash faoliyatida:

- aholi orasida keng tarqalgan kasalliklarni zamonaviy tibbiyot va xalq tabobati usullari orqali tashxislashni;
- keng tarqalgan kasalliklarni zamonaviy xalq tabobati usullardan

foydalangan holda to'g'ri davolash;

- bemorlarni ko'rsatmaga ko'ra tor mutaxassislar bilan birgalikda olib borish va davolash;

- o'z faoliyatida dalillarga asoslangan tibbiyot standartlaridan foydalanish.

Reabilitatsiya va dispanser nazorati faoliyatida:

- kasalliklar bo'yicha reabilitatsiya chora tadbirlarini o'tkazishga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalarni, muddatlarini to'g'ri aniqlash;

- reabilitatsiya majmualarida xalq tabobati usullarni to'liq hajmda amalga oshirish;

- bemorlar o'rtasida reabilitatsiya o'tkazishda zamonaviy va xalq tabobati usullardan foydalanish;

- dispanser nazorati guruhlarida umumiy amaliyoti shifokori bilan to'g'ri aniqlash va bosqichlarini o'z vaqtida amalga oshirish.

Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatida:

- ilmiy-tadqiqotlarni o'tkazish, yangi ilmiy hamda amaliy natijalarni olish, olingan natijalarni tahlil qilish va amaliyotga tadbir qilish;

- echilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish.

Tibbiy-ijtimoiy faoliyatida:

Oila va alohida aholi guruhlari o'rtasida inson salomatligiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-gigienik, ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlashi va xavf omillarini bartaraf qilish.

2. 60911100-Xalq tabobati ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish;

- ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish;

- milliy ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlar bo'yicha o'z nuqtai nazarini og'zaki va yozma bayon etishi, milliy g'oyaning nazariy asoslarni anglagan holda "Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot qurish" bosh g'oyasining mohiyatini hamda uning asosiy g'oyalari bilan mutanosibli va farqini bilish;

- tabiat va jamiyatda yuz berayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, insonning ma'naviy qiyofasi haqida bilimlarga ega bo'lishi, ulardan hayotda va kasbiy faoliyatida hamda zamonaviy ilmiy-tadqiqotlarda foydalana olishi;

- shaxsning inson, jamiyat, atrof muhitga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy me'yorlarni kasbiy faoliyatida qo'llay olishi;

- yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtira olishi, takomillashtirishi va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila bilish;

- o'zining individual bilimlariga tayangani holda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilish;

- o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana bilishi;

- fikrlash madaniyati, muayyan tafakkur uslubiga, og'zaki va yozma nutqini aniq bayon qilish;

- o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqishi va tahlil qilishi,

ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

- ilmiy faoliyati natijalarini xis qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy mas'uliyat shakllangan bo'lishi;

- kasbiy faoliyatda o'tlashtirgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanishi, uslublarni tasniflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

- xorijiy tillardan birini ilmiy muloqot va kasbiy malaka almashish vositasi sifatida egallagan bo'lish;

- axborotni to'plash, saqlash, ularga ishlov berish va ulardan foydalanish usullarini egallashi;

- o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

- axborot, bilim, ma'lumotni bir-biridan farqlash malakasiga ega bo'lishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olishi;

- bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish;

- internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash;

- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishi;

- ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashish;

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot, bibliografik manbalar, biotibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik;

- professional faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun og'zaki va yozma ravishda rus va xorijiy tillarda muloqot qilishga tayyorlik;

- tibbiy xujjatlarni yuritishga tayyorgalik;

- kasbiy muammolarni hal qilishda xalq tabobati usullarni qo'llanishini, dallilarga asoslangan usullarni tanlashni bilish;

- bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatishda dallialarga asoslangan zamonaviy protokollar va standartlar asosida yordam berish;

- tibbiy yordam ko'rsatishda ko'zda tutilgan tibbiy asboblardan foydalanishga tayyorlik.

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning o'quv reja va o'quv dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, fan ishchi dasturlari, zamonaviy o'lchov asboblari, ilmiy-tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

Zamonaviy tashxislash usullari, dalillarga asoslangan tibbiyot, zamonaviy tadqiqot usullari, a'nanaviy sharq tibbiyoti, kineziologiya, readaptatsiya, adaptatsiya, patologik holatlar, to'qimalar biopotensial, refleksoterapiya, massaj, fitoterapiya, sanitariya-gigiena tadbirlari, patologik reaksiya, massaj, funksional sinamalar, akupunktura, akupressura, nutritsiologiya, manual terapiya, fitoterapiya.

**KELISHUV VAROG'I:
ISHLAB CHIQLDI:**



M.O.

Andijon davlat tibbiyot instituti

rektori  M.M. Madazimov

" 29 " 06 2022 yil

KELISHILDI:

Andijon viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi



M.O.

boshlig'i  S.G. Yusupov

" 30 " 06 2022 yil

Farg'ona viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi



M.O.


boshlig'i v.b.  A.Yu. To'xtaqulov

" 30 " 06 2022 yil

Namangan viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi



M.O.

boshlig'i  A.M. Iminov

" 30 " 06 2022 yil